

2021– yilning yanvar–mart oylarida Sirdaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 – yilning yanvar–mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 932,0 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 100,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 820,6 mlrd. so‘mni (100,6 %), o‘rmon xo‘jaligi – 97,3 mlrd. so‘mni (101,9 %), baliqchilik xo‘jaligi – 14,1 mlrd. so‘mni (100,3 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Sirdaryo viloyatining ulushi 3,1 % ni tashkil etdi.

**932,0****Sirdaryo viloyati bo‘yicha
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m**

01

**820,6****Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar**


02

**97,3****O‘rmon xo‘jaligi**


03

**14,1****Baliqchilik xo‘jaligi**

Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining oʻsish surʼati




Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



- Oʻrmon xoʻjaligi
- Baliqchilik xoʻjaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xoʻjaligi sohasidagi xizmatlar

2021–yilning yanvar–mart yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 88, % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 10,5 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 1,5 % i – baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Tuman va shaharlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi



2021–yilning yanvar–mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining eng yuqori hajmi Xovos (153,0 mlrd. so‘m) va Sayxunobod (129,1 mlrd. so‘m) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiyer shahri (4,6 mlrd. so‘m), Shirin shahri (4,8 mlrd. so‘m) va Guliston shahri (19,2 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (100,7 %) yuqori o‘sish sur‘atlari Guliston tumani (101,4 %), Sayxunobod (101,0 %), Sirdaryo (101,0 %), Yangiyer shahri (100,9 %), Xovos (100,9 %) tumanlarida kuzatildi. Guliston shahri (95,2 %), Sardoba (100,4 %), Shirin shahri (100,6 %), Oqoltin (100,6 %) Mirzaobod (100,7 %), Boyovut (100,7 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining o'sish sur'ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2021–yilning yanvar–mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 816,3 mlrd. so'mni yoki 2020–yilning mos davriga nisbatan 100,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari– 67,9 mlrd. so'mni (103,8 %), chorvachilik mahsulotlari – 748,4 mlrd. so'mni (100,3 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

8,3 %
Dehqonchilik
mahsulotlari




91,7 %
Chorvachilik
mahsulotlari

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 89,6 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 8,1 % i – fermer xo'jaliklariga, 2,3 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)



2021-yilning yanvar–mart oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Guliston tumanida (17,4 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Yangiyer shahrida (98,9 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Guliston shahrida (38,1 %) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Guliston shahrida (0,0 %), Shirin shahrida (0,0 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Guliston shahrida (61,9 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Oqoltin tumanida (0,0 %), Boyovut tumanida (0,4 %), qayd etildi.

Dehqonchilik


2021– yilning yanvar–mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 67,9 mlrd. soʻmni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 8,3 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar


Hajmi, t.



Oʻsish surʼati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi




- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon(shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021–yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 1,2 ming t. sabzavotlar (2020–yilning yanvar–martiga nisbatan 1,2 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 78,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



Sirdaryo viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna




Chorvachilik



2021–yilning yanvar–mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 748,4 mlrd. soʻmni yoki 2020–yilning mos davriga nisbatan 100,3 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari-ning umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 91,7 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2021–yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 14,0 ming t. goʻsht (2020–yilning yanvar–martiga nisbatan 100,2 % ga), 51,7 ming t. sut (101,0 % ga), 33,7 mln. dona tuxum (96,3 %), ishlab chiqarildi va 1003,0 t. baliq (100,3 % ga) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 14,0 ming t. go'sht (2020– yilning yanvar–martiga nisbatan 100,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 96,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Sirdaryo viloyati bo'yicha go'sht (*tirik vaznda*) yetishtirish hajmi, tonna




Sut


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021–yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 51,7 ming t. sut (2020–yilning yanvar–martiga nisbatan 101,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 93,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Sirdaryo viloyati bo'yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln.dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 33,7 mln.dona tuxum (2020– yilning yanvar–martiga nisbatan 96,3 %) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 86,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Sirdaryo viloyati bo'yicha
olingan tuxum
hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi,t.



O'sish sur'ati



**Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2021– yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1003,0 t. (2020– yilning yanvar–martiga nisbatan 100,3 % ga) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 70,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Sirdaryo viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2021– yining 1– aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,7 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 9,4 % i fermer xo'jaliklariga, 89,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishi, otlar umumiy sonidan 13,6 % i fermer xo'jaliklariga, 85,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 4,0 % i fermer xo'jaliklariga, 65,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 30,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 422,8 mingtaga yetdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 8077 boshga (1,9 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha, jami yirik shoxli qoramollarning 65,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Sirdaryo viloyati
bo'yicha yirik shoxli
qoramollarning umumiy
bosh soni, ming bosh




2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 141,5 mingtaga yetdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 3108 taga (2,2 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati




**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 92,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Sirdaryo viloyati bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh




2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 290,4 mingtaga yetdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 2678 boshga (0,9 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar


Soni, ming bosh



O‘sinh sur‘ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 89,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Sirdaryo viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming bosh




2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 14 955 taga yetdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 17 taga (0,9 %) ko‘paydi.

Otlar


Soni, bosh



O‘sinh sur‘ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 85,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




Sirdaryo viloyati
bo'yicha otlarning
umumiy bosh soni, bosh




2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 2225,0 mingtaga yetdi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati



**Boshsonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 65,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Sirdaryo viloyati bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 67-236--86-25